

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon davlat universiteti

rektori D.Sh. Xodjayeva

29-avgust 2025 yil

KOMPARATIVISTIK PEDAGOGIKA

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 –	Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 –	Ta’lim
Magistratura		
mutaxassisligi:	70110100 -	Pedagogika nazariyasi va tarixi

Fan/ mavzu kodi KP2205		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	Kreditlar 5	
Fan/ mavzu turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Komparativistik pedagogika		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni komparativistik pedagogikaning ta'lim jarayonidagi o'zni, maqsad va vazifalari, predmeti, rivojlangan davlatlardagi ta'lim jarayonidagi ilg'or tajribalar, o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiiq etishga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Fanning asosiy vazifalari - bo'lajak o'qituvchilarni komparativistik pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari bilan tanishtirish orqali fan bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lishi; komparativistik pedagogika asoslarini o'rganishi; bo'lajak o'qituvchilarda jahon ta'lim tizimining samarali jihatlarini amaliyotga tadbiiq etish orqali yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni modernizatsiyalash uchun zaruriy kasbiy mahoratni shakllantirish; fan bo'yicha mustaqil izlanish, mustaqil bilim olish, xorijiy tajriba asosida o'zining mutaxassislik darajalarini doimiy oshirib borish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Fanning asosiy manbalari: 1. Ortiqova N.A. Komparativistik pedagogika. Darslik. "Art Press". 2024. 2. Hoshimov K., Nishonova S. Pyedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. T.:A.Navoiy nomidagi O'zb. Mil.kutubxona nashr. 2005. 3. Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat. O'quv qo'l. Farg'ona. 2021. 4. Erkaboyeva N. Abdullayev S. Ta'lim jarayonida talabalarda ijtimoiy dahldorlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. Farg'ona. 2023. Fanning dasturi Hongkong universiteti dasturi asosida tayyorlangan. O'qituvchi va talabalarning samarali birgalikdagi faoliyati. Amaliy topshiriqlarni amalga oshirish maqsad va vazifalarni, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan pedagogik muloqot mazmunini aniqlash, shaxsiy yondashuv asosida turli shakllarda pedagogik jarayon sub'ektlarining o'zaro ta'sirini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, shuningdek, o'quv jarayoni sub'ektlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish, o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarini, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro				

munosabatlar muammolarini psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodikasini o'zlashtirish uchun asos bo'ladi. pedagogik o'zaro ta'sirda konstruktiv nizolarni hal qilish ko'nikmalari o'rganiladi.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi –

O'qituvchining pedagogik faoliyat jarayonida o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni malakali tashkil eta olishi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Pedagogik o'zaro ta'siri pedagogikaning asosiy tushunchalaridan biri va ta'limning ilmiy tamoyilidir. Nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi orqali erishgan yutuqlari yoki ta'lim sifatini yaxshilashga talabalariga nafaqat o'quv va tarbiyaviy faoliyatning shaxsiy ahamiyatini ta'minlash to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi, balki amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi, o'quv vazifalari majmuasini o'z ichiga oladi, ularning izchil va sifatli bajarilishi fanning asosiy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – Ushbu fanni o'qitayotgan Hongkong universiteti Top 300 universitetlar standartlariga ega.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – Kursni to'liqroq o'zlashtirish uchun mahalliy va xorijiy mualliflarning aloqa bo'yicha klassik va zamonaviy asarlariga alohida e'tibor berish, mustaqil ish uchun topshiriqlarni bajarish va yakuniy test topshiriqlarini bajarish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish tavsiya etiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. “Komparativistik pedagogika” fanining nazariy asoslari.

1-mavzu: “Komparativistik pedagogika” fani bilimlar sohasi sifatida.

Fanning mazmuni, maqsadi va vazifalari. Komparativistik pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari.

Komparativistik pedagogika fanining mazmuni va mohiyati. Komparativistik pedagogika maqsadi va vazifalari. Komparativistik pedagogika fanining bugungi kundagi ahamiyati. Komparativistik pedagogika fani taraqqiyoti. Komparativistik pedagogikaning taraqqiyot bosqichlari.

2-mavzu: MDH davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari tahlili.

MDH davlatlari ta'lim tizimi bosqichlari, ta'lim modellari va konsepsiyalari. Turli mamalakatlarda ta'lim olganlik darajasi, funksional savodsizligi, savodsizlikni oldini olish masalalari. Turli mamalakatlarda ta'lim

dasturlarining evolyutsiyasi. Ta'lim olish va o'qitishning differensiatsiyasi va qiyosiy tahlili.

3-mavzu: Sharqiy Osiyo davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari tahlili.

Sharqiy Osiyo davlatlarining ta'lim tizimi bosqichlari, ta'lim modellari va konsepsiyalari. Turli mamalakatlarda ta'lim olganlik darajasi, funksional savodsizligi, savodsizlikni oldini olish masalalari. Turli mamalakatlarda ta'lim dasturlarining evolyutsiyasi. Ta'lim olish va o'qitishning differensiatsiyasi va qiyosiy tahlili.

4-mavzu: Yevropa davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari tahlili.

Yevropa davlatlarining ta'lim tizimi bosqichlari, ta'lim modellari va konsepsiyalari. Turli mamalakatlarda ta'lim olganlik darajasi, funksional savodsizligi, savodsizlikni oldini olish masalalari. Turli mamalakatlarda ta'lim dasturlarining evolyutsiyasi. Ta'lim olish va o'qitishning differensiatsiyasi va qiyosiy tahlili.

5-mavzu: YuNESKO, YuNISEF, Xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSH agentligi (USAID), Jahon banki (WORLD BANK) kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston ta'lim tizimidagi tutgan o'rni.

YuNESKO, YuNISEF, Xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSH agentligi (USAID), Jahon banki (WORLD BANK) kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi faoliyati. O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturining tahlili va tavsifi. EGRA va EGMA dasturlarining tahlili va tavsifi. Xalqaro baholash dasturlari.

6-mavzu: Xorijiy mamlakatlarda pedagog kadrlar tayyorlash tizimi.

Xorijda o'qituvchi maqomi va pedagoglarning gender tarkibi. O'qituvchi shaxsiga va faoliyatiga qo'yilgan talablar. Xorijda o'qituvchilar tayyorlash tendendensiyalari. Turli mamalakatlarda pedagoglar tayyorlash tizimi. Xorijda o'qituvchilar malaka oshirish tizimi.

2-MODUL. "Komparativistik pedagogika" fanining amaliy asoslari.

7-mavzu: Fransiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Fransiya davlati ta'lim tizimining rivojlanish tarixi. Fransiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Fransiya davlati ta'lim tizimining bugungi kundagi rivoji.

8-mavzu: Angliya davlati ta'lim tizimiga komparativistik tahlil.

Angliya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Angliya davlati ta'lim tizimining bugungi kundagi rivoji.

9-mavzu: Italiya va Ispaniya ta'lim tizimi.

Italiya davlati ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Italiya davlati ta'lim tizimining rivoji. Ispaniya davlati ta'lim tizimi haqida. Ispaniya davlati ta'lim tizimining bugungi kundagi rivoji.

10-mavzu: AQSh ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.

AQSh davlati ta'lim tizimining rivojlanish tarixi. AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. AQSh davlati ta'lim tizimining bugungi kundagi rivoji.

11-mavzu: Hindistonning ta'lim taraqqiyoti.

Hindiston davlati ta'lim tizimining rivojlanish tarixi. Hindiston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Hindiston davlati ta'lim tizimining bugungi kundagi rivoji.

12-mavzu: Singapur ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari.

Singapur ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Singapur davlati ta'lim tizimining bugungi kundagi rivoji.

13-mavzu: Turkiya ta'lim tizimi haqida.

Turkiya davlati ta'limi tarixi. Turkiya ta'lim tizimining o'ziga xosliklari. Turkiya davlati ta'lim tizimining bugungi kundagi rivoji.

14-mavzu: Rossiya davlati ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.

Rossiya davlati ta'lim tizimining rivojlanishi tarixi. Rossiyada umumiy o'rta ta'lim tizimi. Kasbiy ta'lim. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

15-mavzu: Jahon mamlakatlari ta'limi taraqqiyotining ayrim masalalari.

Jahon mamlakatlari ta'lim muammolarining umumiy tavsifi, ta'lim tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish, ta'limni isloh qilish yo'llari, o'quv dasturlari, integratsiyalashtirilgan va maxsus kurslar. Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish, ta'limni, tabaqalashtirib olib borish muammolari, maxsus maktablar, qobiliyatli bolalar bilan ishlash dasturi. Ruminiya va Vengriya davlatlari ta'lim tizimi.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

3. "Komparativistik pedagogika" fanining nazariy asoslari.
4. Komparativistik pedagogika fani taraqqiyoti. YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarining ta'lim sohasini rivojlantirishdagi faoliyati.

5. Osiyo mamlakatlarida ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston – Xitoy ta'lim tizimini komparativistik tahlil qilish.
6. Koreya mamlakatida ta'lim-tarbiya masalalarining komparativistik tahlili.
7. Yevropa mamlakatlarida ta'lim tizimi masalalarining olib borilishi va komparativistik tahlil.
8. Buyuk Britaniya ta'lim tizimi.
9. Kanada davlati ta'lim-tarbiya jarayonlari.
10. Shvedsiya – Polsha davlatlari ta'lim masalalarining olib borilishi va komparativistik tahlil.
11. Finlyandiya ta'lim tizimi taraqqiyoti.
12. Rossiyada komparativistik pedagogika fani taraqqiyoti va pedagogik jarayonlar.
13. Belorussiya - Ukraina davlati ta'limi tizimi.
14. Malayziya ta'lim taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari.
15. Arab amirliklari davlatlari ta'lim tizimi.
16. MDH davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy Osiyo davlatlari-Qozog'iston – Qirgiziston davlatlari ta'lim tizimi.
17. Jahon ta'lim tizimida masofaviy ta'limning rivojlanishi. Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalash va differensiyalashtirish hamda kasbga yo'naltirish masalalari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar tayyorlash;
 - kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhviy o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
 - multimediali taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

	Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari. 18.Jahon mamlakatlari ta'lim tizimining integratsiyalashuvi. 19.Jahon mamlakatlarida komparativistik pedagogikaning faoliyati va vazifalari. 20.Jahon mamlakatlarida komparativistik pedagogik izlanishlarning ilmiy-nazariy manbalari. 21.Fransiya ta'lim tizimining «Dual bosqichi» xususiyatlari. 22.Germaniyada bolalarning huquqiy vakolatlari. 23.Afrika mamlakatlarida ta'lim muammolari va tarbiya jarayonlari. 24.Vetnam davlati ta'lim tizimi. 25.Finlyandiya ta'lim tizimi taraqqiyoti. 26.Kanadada ta'lim - tarbiya jarayonlari. 27.Jahonning rivojlangan mamlakatlarida tarbiyaviy jarayonlarning etnik xususiyatlari 28.Jahon mamlakatlarida ta'limni integratsiyalash va differensiyalashtirish muammolari. 29.MDH davlatlarining ta'lim tizimi va o'ziga xos xususiyatlari. 30.Markaziy Osiyo davlatlari ta'lim tizimi. 31.Jahonda masofaviy ta'limning rivojlanishi. 32.Globalizatsiya va komparativistik pedagogika. Yaqin va O'rta sharq mamlakatlari misolida.
3.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Talaba bilish kerak: • bo'lajak o'qituvchilarni komparativistik pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari bilan tanishtirish orqali fan bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lishi; komparativistik pedagogika asoslarini o'rganishi; fanning maqsad va vazifalarini o'zlashtira olishi; komparativistik pedagogikaning asosiy manbalari bilan tanishtirish va tasavvurga ega bo'lish; bo'lajak o'qituvchilarda jahon ta'lim tizimining samarali jihatlarini amaliyotga tadbiq etish orqali yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni modernizatsiyalash uchun zaruriy kasbiy mahorat haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi;</i> • jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali amalga oshirish yo'llari, uning rivojlanish tendensiyalari, muammolari, istiqboli to'g'risida ma'lumotlarni bilish va ulardan foydalanish; pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to'g'ri tashkil etishga tayyorgarlikni shakllantirish; fan bo'yicha mustaqil izlanish, mustaqil bilim olish, xorijiy tajriba asosida o'zining mutaxassislik darajalarini doimiy oshirib borish; komparativistik pedagogikaning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish yo'llarini aniqlash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</i>

	komparativistik pedagogikaga oid adabiyotlar bilan ishlash, ta'limning axborot texnologiyalaridan foydalana olish, erkin fikrlovchi barkamol shaxsni shakllantirishni amalga oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - amaliy mashg'ulotlar - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoat ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. - ijodiy ishlar yaratish.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish, (test) topshirish.
6.	VIII. Asosiy adabiyotlar - Ortiqova N.A. Komparativistik pedagogika. Darslik. "Art Press". 2024. - Hoshimov K., Nishonova S. Pyedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. T.:A.Navoiy nomidagi O'zb. Mil.kutubxona nashr. 2005. - Erkaboyeva N. Pedagogik mahorat. O'quv qo'l. Farg'ona. 2021. - Erkaboyeva N. Abdullayev S. Ta'lim jarayonida talabalarda ijtimoiy dahldorlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. Farg'ona. 2023. - Erkaboyeva N. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Tamaddun. T.: 2023 yil. 287 b IX. Qo'shimcha adabiyotlar "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-637, 23.09.2020y. - Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b. - Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b. - Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b. - Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-Toshkent, 2021. -458 b. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

	6.O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni. 8.“2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 -sonli Farmoni. Axborot manbaalari 9. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. 10.http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 11.http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. 12.www.pedagog.uz 13.www.apkpro.ru/content/view 14.www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten 15.www.relarn.ru/conf/conf2007 16.http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/ 17.http://www.allmath.ru/ 18. http://www.ziyonet.uz/.
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari: U.J.Yuldoshev - Qo‘qon davlat universiteti, “Pedagogika” kafedrası mudiri, dotsent.
9.	Taqrizchilar: N.SH. Erkaboyeva - Qo‘qon DU Pedagogika va psixologiya fakulteti dekani pedagogika fanlari doktori, professor.